



HISTORICAL-GEOGRAPHICAL AND ECONOMIC ANALYSIS OF HORSE-BREEDING REGIONS IN CENTRAL ASIA

Abdusamad Fayziyev

Lecturer at Termez State University, base doctorate

E-mail: fayziyevabdusamad40@gmail.com

Termez, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: celestial horses, ecological environment, nutrient resources, steppe lands, fertile crops, Central Asia, history of horse breeding, natural resources.

Received: 02.12.25

Accepted: 03.12.25

Published: 04.12.25

Abstract: This article examines the historical roots of horse breeding in Central Asia and the ecological and geographical conditions of the region. It addresses natural pastures, clean water sources, nutrient-rich steppes, and fertile crop fields that contributed to the development of purebred horses, their endurance, speed, and aesthetic qualities. Furthermore, the study analyzes the role of the ecological environment in the initial domestication of horses and their subsequent spread to other regions, as well as the strategic significance of water and pasture resources and the sustainability of regional horse breeding in early historical periods.

O'RTA OSIYO OT YETISHTIRISH HUDUDLARINING TARIXIY-GEOGRAFIK VA IQTISODIY TAHLILI

Abdusamad Fayziyev

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi, tayanch doktorant

fayziyevabdusamad40@gmail.com

Termiz, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: samoviy otlar, ekologik muhit, ozuqaviy resurslar, bedazor dalalar, hosildor ekinlar, O'rta Osiyo, otchilik tarixi, tabiat resurslari.

Annatatsiya: Ushbu maqola Markaziy Osiyoda otchilikning tarixiy ildizlarini, shuningdek, bu mintaqaning ekologik va geografik sharoitlarini tahlil qiladi. Tadqiqotda tabiiy yaylovlar, toza suv manbalari, boy ozuqaviy resurslar, keng bedazor dalalar va hosildor ekin maydonlari zotdor otlarning rivojlanishi, chidamliligi, tezkorligi va

goʻzalligi bilan bogʻliq omillar sifatida koʻrib chiqilgan. Shuningdek, maqola otlarning ilk boqilishi va keyinchalik boshqa hududlarga tarqalishi jarayonida ekologik muhitning roli, suv va yaylov resurslarining strategik ahamiyati hamda oʻrta asrlar davomida mintaqaviy otchilikning barqarorligi masalalarini qiyosiy tahlil bilan yoritadi.

ИСТОРИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИЙ И ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ РАЙОНОВ КОНЕВОДСТВА В СРЕДНЕЙ АЗИИ

Абдусамад Файзиев

Базовый докторант

Преподаватель Термезского государственного университета,

E-mail: fayziyevabdusamad40@gmail.com

Термез, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: небесные лошади, экологическая среда, питательные ресурсы, степи с бедой, плодородные посевы, Центральная Азия, история коневодства, природные ресурсы.

Аннотация: В данной статье исследуются исторические корни коневодства в Центральной Азии, а также экологические и географические условия региона. Рассматриваются естественные пастбища, чистые водные источники, богатые питательными ресурсами обширные степи и плодородные поля, которые способствовали развитию породистых лошадей, их выносливости, скорости и эстетических качеств. Кроме того, статья анализирует роль экологической среды в процессе первичного приручения лошадей и их дальнейшего распространения в другие регионы, а также стратегическую значимость водных и пастбищных ресурсов и устойчивость регионального коневодства в ранние исторические периоды.

Krisih. Zotdor otlarga boʻlgan insoniyatning qiziqishi eng qadimgi davrlardan to hozirgi kungacha davom etib kelayotgan barqaror ijtimoiy va madaniy hodisalardan biri hisoblanadi. Oʻrta Osiyo xalqlari esa ming yillardan buyon zotdor otlarning seleksiyasi, yetishtirilishi va tarbiyalanishi sohasida yetakchi tajribaga ega boʻlgan. Otlarning tabiatan erkinlik va harakatga moyilligi, naslni rivojlantirish jarayonida ekologik jihatdan qulay boʻlgan togʻ, togʻoldi va daryoboʻyi hududlardagi doimiy yashil yaylovlar, soʻlim daraxtzorlar, boy ozuqa resurslari, toza suv va havoning sifatligi, shuningdek boshqali ekinlarning keng yetishtirilishi kabi tabiiy sharoitlar muhim rol oʻynagan. Tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar tahliliga koʻra, Oʻrta

Osiyoning turli hududlarida bunday ekologik va tabiiy sharoitlarga ega bo'lgan mintaqalar aniqlangan hamda ularda yetishtirilgan zotli otlarning rivojlanish jarayoni tizimli va qiyosiy asosda yoritilgan.

Materiallar va usullar. Ushbu maqolada mavzuni keng qamrovda yoritishda turli manbalar va ilmiy adabiyotlardan foydalanilgan. Jumladan, Ibn Havqalning “Kitob sur’at al-arz” (“Yerning sur’ati”), muallifi noma’lum “Hudud ul-olam”, N.Ya. Bichurinning Xitoy manbalaridan qilgan tarjimalari, shuningdek, mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning asarlari tahliliy jihatdan ishlatilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida qiyosiy tahlil, xronologik izchillik, xolislik, tarixiylik va tizimli yondashuv kabi ilmiy prinsiplardan foydalangan.

Natijalar va Muhokama (Results and Discussion). Zotdor otlarni yetishtirish, ular bilan bog‘liq turli tomoshalar, poygalar va sport musobaqalarini tashkil etish qadim zamonlardan hozirgi kungacha insonlarda katta qiziqish uyg‘otib kelgan. Otlarning go‘zalligi, xushbichimligi, chidamliligi, tezligi va inson bilan do‘stona munosabatda bo‘lish qobiliyati shoirlar she‘rlari va dostonlarda madh etilgan. Hukmdorlar esa o‘zlarining sevimli otlarini yodgorlik sifatida abadiylashtirishga intilganlar. Shu bilan birga, dunyoning barcha mintaqalarida zotdor otlarni yetishtirish mumkin bo‘lmagan; buning sababi mintaqalarning tabiiy sharoiti va ekologik holati bilan bog‘liq edi. Boshqa hududlarga olib ketilgan zotdor otlar o‘sha mintaqalarning iqlimi va tabiiy sharoitiga mos kelmagani sababli samarali ko‘payish imkoniyatiga ega bo‘lmagan.

Zotli otlar qachon va qayerda shakllangani hamda ilk bor insonlar tomonidan qo‘lga o‘rgatilgani masalasi bo‘yicha V.M. Masson o‘z fikrlarini bildirgan. U otlarning Markaziy Osiyoning dasht hududlarida shakllanganini va odamlar tomonidan ilk marta qo‘lga o‘rgatilganini ta’kidlagan. Shuningdek, Masson dasht hududlaridan tarqalgan otlar dunyoning turli mintaqalariga yetib borgani va uch asosiy yo‘nalishda yoyilganini qayd etgan: Sharq tomonga (hozirgi Mo‘g‘uliston va Xitoy), G‘arb tomonga (Yevropa) va Janub tomonga (Eron, Hindiston, Eski Osiyo hududlari). Ushbu yo‘nalishlarda tarqalgan otlar zamonaviy barcha zotli otlarning ajdodlari sifatida baholangan [7. 135].

Keyinchalik otlar turli mintaqalarning tabiiy va ekologik sharoitlariga moslashib, zot va turlarga bo‘lingan. O‘rta Osiyoda yetishtirilgan otlar o‘ziga xos sifatleri bilan ajralib turgan, bu esa mintaqaning tabiati va ekologik muhiti ularning ko‘payishi va rivojlanishi uchun qulay bo‘lganini ko‘rsatadi. Ippologlar fikricha, O‘rta Osiyoda yetishtirilgan chopqir otlar sovuq shamollardan himoyalangan vodiylarga ega bo‘lib, to‘yimli dukkakli va boshqoli o‘simliklar (masalan, beda, arpa), tog‘ va dasht yaylovlaridagi yozda qurimaydigan o‘t-o‘lanlar, qulay suv havzalari kabi ekologik sharoitlarning mahsuli sifatida baholangan. Zotli otlarning don bilan boqilishi ularning sog‘lom va kuchli rivojlanishi uchun muhim omil bo‘lgan [13. 23]. Shu sababli,

tabiat va ekologik sharoitlar otlarning go‘zalligi, chopqirligi va kuchi shakllanishida birinchi darajali ahamiyatga ega deb hisoblanadi.

Qadimgi dunyo tarixchilari dastlab Baqtriya va Parfiya davlatlari orqali turli mamlakatlar o‘rtasidagi xalqaro aloqalarga oid ma‘lumotlarni taqdim etgan va ushbu hududlarda yetishtirilgan zotdor otlarning boshqa mamlakatlar diqqatini jalb qilganini qayd etganlar. Xususan, Baqtriya haqida keltirilgan manbalarda uning keng va yashil yaylovlari, otlarni ko‘paytirish uchun qulay tabiati, aholining otlarni qo‘lga o‘rgatishni birinchi bo‘lib boshlagani, shuningdek, Baqtriya otlarining tog‘larni bosib o‘tish, uzoqqa sakrash, go‘zallik va chopqirlik kabi xususiyatlari bilan mashhur bo‘lgani qayd etilgan [21. 13]. Ushbu sifatlarning shakllanishiga sersuv yaylovlar, toza va musaffo havo kabi tabiiy sharoitlar katta ta‘sir ko‘rsatgan.

Miloddan avvalgi II asr oxiri va ayniqsa o‘rta asrlarda Buyuk ipak yo‘li bo‘ylab savdo-sotiq aloqalari rivojlangan davrda otlar savdosi muhim ahamiyat kasb etgan. Otlarga eng katta talab xitoyliklar tomonidan bo‘lgan, ularning ehtiyoji asosan Transoksiana, Jung‘oriya, Tyanshan tog‘ yonbag‘irlari va Tarim havzasi hududlaridan qondirilganligi tarixiy manbalarda qayd etilgan [22. 24]. Ushbu hududlar asosan tog‘ va tog‘oldi mintaqalari bo‘lib, ularning boy o‘tloqzorlari va toza suv manbalari zotdor otlarni yetishtirish uchun qulay sharoit yaratgan.

Buyuk ipak yo‘lining shakllanishi bilan bog‘liq voqealarda, Xan imperiyasining elchisi Chjan Szyan O‘rta Osiyo davlatlariga tashrif buyurgan va Xitoyga qaytgach, Farg‘ona vodiysida yetishtirilgan otlar, ularning jismoniy xususiyatlari va go‘zalligi haqida ilk marta ma‘lumotlarni Xitoyda tarqatishga sabab bo‘lgan. Shu davrda Farg‘onada yetishtirilgan zotdor otlar Xitoyda “Xansyuema” – “badanidan ter o‘rniga qon oquvchi otlar” va “Tyanma” – “Osmon (ilohiy) otlar” sifatida ulug‘langan. Bunday zotdor otlarning shakllanishi Farg‘ona vodiysining tabiiy sharoiti va ekologik qulayligi bilan bog‘langan [19. 274].

Tarixiy manbalarda Farg‘ona vohasining to‘rt tomoni tog‘lar bilan o‘ralgani, tog‘ va tog‘oldi yaylovlaridagi o‘tlarning yil davomida yashil bo‘lishi, zilol suv manbalarining mavjudligi, shuningdek, otlarning sevimli oziqalari hisoblangan beda va arpani yetishtirish uchun qulay sharoitlari qayd etilgan. Shu sababli, Farg‘onada yetishtirilgan otlar o‘zining jismoniy va estetika xususiyatlari bilan boshqa hududlardagi zotli otlardan ajralib turgan, chidamliligi va chopqirligi bilan mashhur bo‘lgan [15. 67].

Bundan tashqari, Farg‘ona yerining unumdorligi otlarning jismoniy rivojlanishiga ham ijobiy ta‘sir qilganligi qayd etilgan. Shu bilan birga, ayrim tarixiy manba va adabiyotlarda otlarning yuqori sifatini hududning tabiati va ekologik holati bilan emas, balki ularni boqish usuli bilan izohlashga urinishlar ham uchrab turadi. Masalan, Xan Shu (“Xan xonadoni tarixi”)da Farg‘ona otlarining yuqori sifati ko‘pincha beda bilan oziqlantirilganliklari bilan izohlanadi, bu

esa mazkur mintaqaning ekologik va tabiiy omillari ahamiyatsizligi haqidagi noto'g'ri xulosalarga olib kelgan[1. 11].

Shu sababli Xitoyga Farg'onadan beda urug'lari olib ketilgan va ko'plab maydonlarga ekish yo'lga qo'yilgan. Bu xususda quyida yana to'xtalib o'tamiz. Farg'ona otlarini kelib chiqishiga oid qarashlarda ham ularni ilohiylikka daxldor degan qarashlar shakllangan. Xitoy yilnomalarida bu kabi zotdor otlar ilohiy kuchlar ta'sirida shakllangan degan qarashlar ustunlik qilgan va keltirilgan afsonalarda baland tog' cho'qqisidagi g'orda ilohiy ot mavjudligi, uni tutishning imkoni yo'qligi, shu sababli mahalliy yilqichilar biyalarni shu g'or yaqinida o'tlatishga va ilohiy otdan nasl olishga harakat qilganliklari, shu ayg'irning mahalliy biyalardan qo'shilishidan tug'ilgan otlar "Tyanma" – "ilohiy" yoki "Xansyuema" – "ter o'rniga qon tomadigan otlar" bo'lib yetishishiga oid afsonaviy qarashlar shakllangan[6. 133]. Keyinchalik, ilohiy otlarni vujudga kelishi xususida yana bir qator afsonalar to'qilgan. Ilk o'rta asrlarda mashhur bo'lgan Xuttal otlari xususida ham shu kabi afsona vujudga kelgan. Xuttal zotli otlari xususidagi afsonada, zotdor otlar Xuttalon shahri yaqinidagi suvi tiniq, musaffo bo'lgan Nozko'l muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Ya'ni zotdor otlarga oid afsonalarda ham ekologik omil ko'zga tashlanadi. Afsonada Nozko'ldan chiqqan ilohiy ot Xuttal zotli otlarning vujudga kelishiga sabab bo'lgan. Ya'ni yilqiboqarlar biyalarni Nozko'l atrofiga olib kelishi va ilohiy ayg'ir bilan qo'shilish afsonasi shakllangan[8. 164]. Shunday afsonani IX asrda yashagan arab geograf olimi Ibn Xurdodbek ham keltirgan bo'lib, uning hikoyasidagi farq o'lka hukumdorining baytallari Nozko'l yaqinidagi barra o'tlarga mo'l yaylovga yuborilganda, yilqiboqarning uxlab qolishi va bexosdan uyg'onganda biyalar orasida haddan tashqari ko'rkam, uzun bo'yli, chiroyli baqquvat ayg'ir ham o'tlab yurganligi, ayg'irning buloqqa tushib g'oyib bo'lishi, bu hol har doim takrorlangani sababli baytallarning qulunlari ham otalari singari zotdor bo'lganligini keltirib o'tgan[2. 94]. Ushbu keltirilgan afsonada ham zotdor otlar zilol suv, yashil o't-o'lanlar kabi tabiat omili sabab shakllanganligiga ishora mavjud. Xuttal zotli otlarning Nozko'l va suv omili bilan bog'liqligi xususidagi ilmiy tadqiqotlarni taniqli olim Shamsiddin Kamoliddin ham keltirib o'tgan[16. 97; 17. 137]. Ammo, baland qoyali tog'da g'orda yashaydigan ilohiy ayg'ir xususidagi afsonalar ham Farg'onadan boshqa hududlarga ham tegishli hisoblanadi. Xitoy yilnomalarini dastlabki tadqiqodchilaridan biri bo'lgan N.Ya. (Iakinf) Bichurin Toxariston hududidagi tog'larning biridagi g'orda ilohiy ayg'irning mavjudligi va mahalliy yilqiboqarlar undan samoviy qulunlar olishiga oid ma'lumotlarni keltirib o'tganligini ko'rishimiz mumkin[5. 255].

Xitoy yilnomalari O'rta Osiyoning qadimgi va ilk o'rta asrlar tarixiga oid qimmatli manbalar bo'libgina qolmay, O'rta Osiyo hududidagi mayda mulklarning tabiati, ekologik holati, o'simliklari, jonivorlari xususida ham ma'lumot beruvchi muhim manbalardan biri bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, zotdor otlarni ko'plab yetishtirgan Kou-tou-lo (Xuttal) mamlakati haqidagi

ma'lumotlar boshqalarga nisbatan bir qadar batafsil ekanligi bilan alohida ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi. Shuningdek, Toxariston hududida yetishtirilgan ko'plab g'aroyib otlar ham Xitoy yilnomalarida tilga olingan bo'lib, o'lkaning tabiati batafsil yozib qoldirilgan. Ayniqsa, Toxariston shimolida zotdor otlarni yetishtirishga moslashgan, doimiy yashil yaylovlarga ega P'o-li (Baysun) tog'i janubiy yonbag'ri ko'p bora tilga olingan. Ushbu tog'da mavjud bo'lgan g'orlarning birida ilohiy ayg'ir yashashi, yilqichilar o'z biyalarini ushbu g'or yaqinida boqishga urinishlari va ilohiy ayg'irdan zot olishga harakat qilishlari, ilohiy ot bilan qo'shilgan biyalar ter o'rniga qon oquvchi toychoqlarni dunyoga keltirishi bilan bog'liq afsona keltirilgan[16. 97]. Zotdor otlarni yetishtirishda afsonalar qay tarzda bayon etilmasin asosiy mazmun-mohiyat, o'zakda toza havo, zilol suv, doimiy yashil yaylovlar, boshqali ekinlar (arpa)ni ko'p yetishtirish bilan bog'liq obodonchilik kabi ekologik muhim omillar katta ahamiyatga ega bo'lib qolavergan. Zotdor otlarni bu kabi usullarda yetishtirishga oid afsonalar turli mamlakatlarga ham Buyuk ipak yo'li bo'ylab tarqalganligini ko'rishimiz mumkin. Misol tariqasida VIII asrda yashagan xitoylik sayyoh va budda ruhoniysi bo'lgan Syuan Szan xotiralarini keltirish mumkin. Uning yozishicha, sayyoh va ruhoniylar Xitoydan g'arbga Buddaviy ibodatxonalarni ziyorat qilish uchun yo'lga chiqqanda Sharqiy Turkistondagi Kucha shahriga kelgan. Bu yerdagi buddaviylik ibodatxonasida tunab qolgan ruhoniylar ibodatxona yaqinidagi ko'lni rohiblar "Ajdarho ko'li" deb atashlari, biyalarning shu ko'lda yashovchi ajdarlar bilan qo'shilishi natijasida ajdar-otlar tug'ilishi, otga aylanish jarayonida ajdarlar vahshiylilik xarakterini yo'qotib, yuvosh bo'lishi bilan bog'liq afsonani keltirib o'tgan[18. 89]. Bu afsonada otlarni minishga moslashtirguncha ajdar singari olishishi keyinchalik insonlarga sadoqatli do'st, hamroh bo'lishi, ajdar kuchiga ega bo'lsada insonning yuvosh hamrohi bo'lishida suv omili muhim ekanligiga ishora mavjud.

Zotdor otlarning ko'pchiligi qadimgi va o'rta asrlar davrida O'rta Osiyo hududlarida yetishtirilgan bo'lib, yuqorida ta'kidlanganidek, tabiati toza, o't-o'lanlarga boy, zilol suvlar oqadigan hududlarda ko'paygan va o'z egalarini shuhratini dunyoga taratgan. Xitoy tarixiga bag'ishlangan adabiyotlarda O'rta Osiyoning bir qator o'lkalarida zotdor otlar yetishtirilishi va ularning tabiati xususidagi fikr-mulohazalar mavjudligini ko'rishimiz mumkin. Toxariston hududi zotdor otlar yetishtiradigan o'lkalardan biri sifatida keltirilgan bo'lib, Xitoy saroyiga ko'p bora otlarni sovg'a sifatida yuborganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilganligini o'qish mumkin. Otlar yuborish barobarida otlarni yetishtirilgan o'lkaning tabiiy-iqlimiy sharoitlari ham keltirilgan. Hattoki, Toxariston tarkibiga kiradigan kichikroq viloyat bo'lsa ham nazardan qochirilmagan. Masalan, Toxariston (xitoycha Tu-xu-lo) mamlakati o'lkalaridan biri bo'lgan Xo knyazligi xususida, unda o'sadigan daraxtlar, doimo yashil kichik o'rmonzorchalari mavjudligi, turli mevali daraxtlarning ko'plab yetishtirilishi, gullar ko'p yetishtirilishi, zilol suvlar oqib turadigan daryochalar ko'pligi keltirib o'tilgan[15. 159]. Bundan tashqari qadimgi Baqtriya o'lkalaridan biri

bo'lgan Begram knyazligi xususida budda dini rohibi va sayohatchisi Syuan Szan o'z esdaliklarida yozib qoldirib, mamlakatda ko'plab boshqoli ekinlar yetishtirilishi, bu ekinlar zotdor otlarni kuchga to'lishi uchun ahamiyati, shuningdek, bog'larga burkanganligi, yaylovlar va dalalarda turli o'simliklar bilan birgalikda ko'plab lolalar o'sib unishi, zotdor otlari mashhurligi kabi ma'lumotlarni keltirib o'tgan[20. 100]. Ilk o'rta asrlar davrida mashhur bo'lgan Xuttal otlari Xuttalon o'lkasida yetishtirilgan va dunyoning turli mamlakatlariga sotish uchun yoki hukumdorlar, amaldor va e'tiborli shaxslarga tuhfa sifatida olib ketilgan. Tarixiy manba va adabiyotlarda Xuttalonning tabiati, o'lkaning ekologik holati xususida ham ma'lumotlar keltirilgan. Masalan, noma'lum muallif qalamiga mansub "Hudud al-olam" asarida Xuttalon mamlakati katta tog'lar bag'rida ekanligi, mamlakat nihoyatda obod ekanligi, ekinzorlaridan mo'l hosil olinishi, buning asosiy sababi zilol suvlarida ekanligi. Musaffo suvlari, toza havosi sababli ko'plab bedov otlar yetishtirilishi ususida fikr-mulohazalar yuritilgan[9. 19-20]. Bundan tashqari ilk o'rta asrlar davriga oid muarrixlardan yana biri Ibn Havqal ham Xuttalon haqida o'zining "Kitob sur'at al-arz" ("Dunyo sur'ati") asarining Movarounnahr bo'limida al-Xuttal yerida haqida qisqacha tavsif keltirib o'tgan. Unda, o'lkaning go'zal tabiati, turli ekinlardan, ayniqsa boshqoli ekinlardan yaxshi hosil olinishi, shirin-shakar mevalari, o'lkaning serhosilligi va tabiatining boyligi, chorvasining, xususan, zotdor otlarining ko'pligiga oid ma'lumotlarni keltirish orqali Xuttalonning ekologik holatiga umumiy tavsif keltirgan[8. 32].

Ilk o'rta asrlar davri xususan, Tan imperiyasi (618-906 yy) mavjud bo'lib turgan xronologik chegarada Xitoyga zotdor otlarni yetkazib beradigan hudud sifatida Samarqand viloyati tilga olib o'tilgan. Samarqandning tabiati va uning go'zalligi ko'plab tarixiy manba va adabiyotlarda tilga olib o'tilgan. Bu davrda xitoyliklar zilol suvlarga boy Samarqandni o'zlarining asosiy jangovar otlari yetishtiriladigan hudud sifatida qaraganlar. Bu xronologik davrda xitoyliklar qadimgi Farg'onaning mashhur "szyun" (barcha chopqir otlarni xitoyliklar shunday nomlagan) otlarining avlodlari Samarqand hududlarida yetishtiriladi deb hisoblaganlar[18. 90-91]. Xitoy manbaviy matnlarini tahlili bilan shug'ullangan taniqli olim A.G. Malyavkin izlanishlarida keltirib o'tishiga qaraganda, Xitoy yilnomalarida Kan (Samarqand) bilan chegaradosh Ipan (ammo, Ipan qayer ekanligi, Samarqanddan qaysi taraf va qancha masofada ekanligiga oid ma'lumotlar keltirilmagan) o'lkasi tilga olingan bo'lib, uning tabiati va o'lkaning ekologik holati inson tanasi uchun yoqimli ekanligi, yashillikka burkanganligi, bu yerda zotdor, jangovar otlar ko'pligini keltirib o'tgan[11. 90]. Geografik nuqtai-nazardan Kesh (Shahrisabz) hududi Samarqand shahri bilan yaqin joylashuvga va tabiatining umumiy xarakterga egaligi tilga olib o'tilgan. Kesh o'lkasida ham bahor, yozning yoqimli kelishi, doimiy yashil yaylovlar, toza havo va zilol suvlarning mo'lligi sababli zotli otlar yetishtirilishi, jangovar xususiyatlari tarixiy manba va adabiyotlarda tilga olingan. Bu haqda ma'lumot bergan arab geograf, sayyohi Ibn Havqal Keshda yetishtirilgan zotdor

otlarga Movarounnahrning o'zida ham talab katta ekanligi, shuningdek, qo'shni mamlakatlarga olib ketilishini yozib qoldirgan[8. 67].

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, O'rta Osiyodagi hududlarning barchasi tog', tog'oldi o'lkalar bo'lmay, mintaqaning katta qismini cho'l va dasht landshaftiga ega bo'lgan hududlar egallagan. Ammo, ushbu hududlarda yetishtirilgan otlarning ham Xitoy, Hindiston, Arab mamlakatlarida o'z xaridorlari mavjud bo'lib, ularda yetishtirilgan zotdor otlar ham O'rta Osiyoning boshqa hududlarida yetishtirilgan zotdor otlardan qolishmagan. Cho'l, dasht o'lkalarda tabiat, ekologik vaziyat ham mintaqa shimoliy qismlarida bo'lganligi sababli tog' va tog'li mintaqalari tabiatiga xos bo'lib, bu yerlardagi yaylovlarda ham ajoyib zotdor otlar yetishtirilgan va ular butun insoniyat tarixi davomida o'ziga xos hurmat va e'tiborga sazovor bo'lganlar. Cho'l va dasht otlarining o'ziga xos xususiyatlari shundan iborat bo'lganki, ular turli iqlim injiqliklariga chidamli ekanliklari bilan ajralib turgan. Cho'l, dasht otlari tog' va tog'oldi yaylovlarda yetishtirilgan otlardan bir qadar past bo'yli bo'lsalarda butun yil bo'yi yaylovlarda yashashlari va sovuq, issiqqa chidamli ekanliklari bilan ajralib turganlar[4. 30]. Akademik V.V. Bartold ham bu xususda ma'lumotlarni yozib qoldirib, ilk o'rta asrlarda mavjud bo'lgan Kimaklar davlati va ularning zotdor otlari uyurlari asosan Irtish daryosi bo'ylarida boqilishi, Irtish daryosi bo'ylari tabiati, ekologik holati zotdor, chidamli otlarni yetishtirishga moslashganligi bilan bog'liq fikr-mulohazalarni keltirib o'tiganligini ko'rishimiz mumkin[3. 45]. Irtishbo'yi iqlimi, tabiati, ekologik holati Kimaklar davlatining qudrati va iqtisodiy asosi bo'lgan otlar yetishtirish uchun qulay o'lkalardan biri bo'lgan deb xulosa qilish mumkin.

Yuqoridagi fikrlarimiz davomida zotdor, jangovar, chiniqqan va chidamli otlarni yetishtirishda ekologik omil emas, balki ozuqa omili birinchi o'rinda turadi degan fikr-mulohazalar mavjudligiga bir qadar to'xtalib o'tgan edik. Aslida bu qarashlar Xitoyning Xan imperiyasi (mil.avv. 206-mil. 220 yy) imperatori U-di (mil.avv 156/141-87 yy)ning elchisi bo'lib O'rta Osiyoga ilk bora kelgan Chjan Szyanning ma'lum bir ma'noda Farg'ona zotdor otlarining asosiy yemishi beda ekanligi bilan bog'liq kuzatishlari asosida yuzaga kelgan. Chjan Szyanga farg'onaliklar o'z tulporlarini boqishda bedani ishlatgani xitoylik yilqishunos uchun yangilik sifatida ko'rilgan. Shu sababli u o'zi bilan Xitoyga qaytishda bir necha Farg'onaning zotdor otlari va beda urug'ini Xitoyga olib ketgan. Natijada, bedaning Xitoyda paydo bo'lganiga 2100 yildan oshiqroq vaqt o'tgan deb bimalol aytish mumkin. Xitoylik dehqonlar bir necha yil guruch ekin hosilsizlangan yerlariga bir-ikki yil beda ekib uni serhosil yerga aylantirish uslubini kashf qilganlar[14. 28-29]. Bedaning Xitoyga olib ketilishi qayta-qayta guruch ekilib meliorativ holati yomonlashgan yerlarni serhosil yerga aylantirish imkonini berib, ekologik vaziyatni bir qadar tartibga solishga ham xizmat qilgan deb xulosa qilishimiz mumkin. Chjan Szyan tomonidan beda urug'i olib ketilgandan so'ng Xitoyning katta-katta maydonlarida beda ekila boshlangan va

ularning meliorativ holati yaxshilana boshlangan[12. 153]. ammo, faqat beda yetishtirish bilan dunyoda aholi soni bo'yicha yetakchi bo'lgan mintaqa xalqlarini qornini to'yg'azib bo'lmagan. Xitoyliklar tez orada bu sohaga ham ixtisoslashib olganlar. Ular zotdor otlar uchun qulay iqlimiy sharoitlarni tanlash, beda ekiladigan yaylovlarni shakllantirishni uddasidan chiqqanlar. Mamlakatning shimoliy-g'arbiy hududlari hozirgi Xitoyning Shensi va Gansu o'lkalari hududlari ot boqish uchun bir qadar qulay o'lkalar deb hisoblangan. Ushbu o'lkalarda hozirga qadar saqlanib qolgan va qoyatosh sur'atlarda o'z aksini topgan yilqilar va qoramollarni boqishga oid tasvirlar yuqoridagi fikr-mulohazalarimizni tasdiqlashga xizmat qiladi[10. 156].

Tarixning qadimgi va o'rta asrlar bosqichida jang harakatlarini olib borish va davlatning qudratini jangovar, zotdor otlarning ko'pligi ham belgilab bergan. Qaysi davlat yoki hukumdorning jangovar, chopqir, chidamli otlari ko'p bo'lsa u davlat yoki hukumdor qudratli bo'lgan. Chunki, otlar urush va jang harakatlarida qo'shinni mobilligini, tez harakat qila olishini, tezda hujum qilib, xavf tug'ilganda tezda chekina olish imkoniyatlarini bergan. Shu sababli qadimgi va o'rta asrlar davrida jangovar otlarga ega bo'lishga urinish sodir bo'lgan. Bu hol ko'pincha Xitoy hukumdorlari tomonidan amalga oshirilgan siyosatda ko'zga tashlangan. Tabiiy savol tug'iladi. Nega Xitoyning o'zida jangovar otlar yetishtirilmagan?. Tarixchi Lyus Bulnoisning yozib qoldirishicha, Xitoyda yetishtirilgan otlarning tuyog'lari tezda eskirib, uzoq masofalarga yurishni juda qiyinlashtirgan. Bundan tashqari, Xitoyda qishloq xo'jaligi taraqqiy etgan bo'lib, otlar chopqillab, o'sib-ulg'ayadigan keng yaylovlar deyarli qolmagan. Yana bir taniqli olim Ostin Kouts o'z tadqiqodlari davomida Xitoyda mavjud bo'lgan o'simliklar va suvlar tarkibida kalsiy tanqisligini aniqlagan. Uning fikricha, aynan kalsiy yetishmovchiligi sababli Xitoyda yilqichilik muvaffaqiyatli rivojlanmagan[21. 12-13].

Xulosa. Yuqorida keltirib o'tilgan ko'plab ma'lumotlarni tahlil qilib, quyidagicha xulosalarni keltirib o'tishni lozim deb hisoblaymiz. Jumladan, Markaziy Osiyo mintaqasi dastlab otlarni qo'lga o'rgatilgan hududlardan biri bo'lib hisoblanadi va hozirgi kunda tarqalgan deyarli barcha turdagi otlarning kelib chiqqan vatani bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari otlarni yetishtirish uchun Markaziy Osiyo, xususan O'rta Osiyoning tog', tog'oldi, cho'l-dasht mintaqalari muhim ahamiyati kasb etgan. Chunki, ushbu hududlarda zotdor otlar uchun kerak bo'lgan barcha tabiiy-ekologik omillar mavjud bo'lgan. Zotdor otlarni yetishtirishda, eng avvalo, so'lim tabiat, zilol suv, doimiy yashil yaylovlar, boshqoli va donli ekinlarning mo'l yetishtirish imkonini beruvchi hosildor tuproq, turli epidemik kasalliklarni keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan, botqoqzor, xarobazorlardan yiroqroq hududlar bo'lishi talab qilingan. Ushbu ekologik omillar mavjud bo'lgan hududlarda qadimdan boshlab zotdor otlar yetishtirilgan va ular dunyoning turli mintaqalariga olib ketilib, o'sha o'lka va mamlakatni mashhur bo'lishiga xizmat qilgan deb xulosalashimiz mumkin. Bugungi kunda, inson faoliyati rivojlanishi bilan tobora qisqarib

borayotgan tabiiy-ekologik jihatdan zotdor otlar yetishtiriladigan hududlarni qisman bo'lsada saqlab qolish va insoniyat tarixining bir bo'lagi bo'lgan zotdor otlarni tarbiyalab kelgusi avlodlarga yetkazish barcha insonlarning burchi deb bilamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aitbaev A. Qadimgi Farg'ona tarixidan (Xitoy manbalarida Farg'ona haqidagi ilk ma'lumotlar). - T.: Fan, 2002. - 107 b.
2. Anarbaev A. Dovonning samoviy otlari // Fan va turmush. № 3-4-5. 2008. – B. 93-95.
3. Bartold V.V. Sochineniya. Tom VIII. Raboty po istochnikovedeniю. – M.: Nauka, 1973. – 723 s.
4. Barfield T.Dj. Opasnaya granica: kochevnye imperii i Kitay (221 g. do n. э. - 1757 g. n. э.) / Per. D.V. Ruxlyadeva, V.B. Kuznetsova; nauch. red. i pred. D.V. Ruxlyadeva. – Sankt-Peterburg, 2009. – 448 s.
5. Bichurin N.Ya. (Iakinf). Sbranie svedeniy o narodax, obitavshix v Sredney Azii v drevnie vremena. T. III. - M.-L.: Izdatelstvo akademii nauk SSSR, 1953. - 325 s.
6. Gumilëv L.N. Istoriya naroda xunnu / Sost. I общ. red. A.I. Kurkchi: V. 2-x knigax. Kn 1. – M.: Institut DI-DIK, 1998. – 448 s. il.:
7. Drevnie kultury Sredney Azii i indii / Pod redakciey V.M. Massona. – Leningrad: Nauka, Leningradskoe otdelenie, 1984. – 186 s.
8. Ibn Havqal. Movarounnahr. Arab tilidan tarjima va izohlar muallifi Sh.S.Kamoliddin, mas'ul muharrir F.S.Xasanov. – Toshkent: "O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriëti, 2011. – 164 b.
9. Hudud ul-olam / [Mas'ul muharrir Mirsodiq Ishoqov]. – T.: O'zbekiston, 2007. – 64 b.
10. Kрюkov M.V., Perelomov L.S., Sofronov M.V., Cheboksarov N.N. Drevnie Kitayцы v epoxu centralizovannykh imperii. – M.: Nauka, 1983. – 414 s.
11. Malyavkin A.G. Tanskie xroniki o gosudarstvax Centralnoy Azii: Teksty i issledovaniya. - Novosibirsk: Nauka, Sib. otd-nie, 1989. – 432 s.
12. Rtveladze Э.V., Saidov A.X., Abdullaev E.V. Qadimgi O'zbekiston qivilizatsiyasi: davlatchilik va huquq tarixidan lavhalar. – T.: Adolat, 2001. - 416 b.
13. To'ychiboev B.B. O'rta Osië – qo'lga o'rgatilgan otlar vatani // "Evroosië xalqlari madaniy merosi: zamonaviy tadqiqotlar, muammo va o'rganish usullari" mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari (2-qism). – Jizzax: 2022. – B. 21-24.
14. Xodjaev A., Karimova N., Qo'ldoshev Sh., Djumaniëzova F., Azimov X. O'zbekiston – Xitoy munosabatlari tarixidan. – T.: Fan ziyosi nashriëti, 2022. – 216 bet.
15. Xodjaev A., Qo'ldashev Sh., Djumaniyazova F. Markaziy Osië davlatchilik tarixiga oid ma'lumotlar (xitoy manbalari asosida). – T.: Fan, 2018. – 184 b.

16. 16. Shamsiddin Kamoliddin. K voprosu o razvitii konevodstva v Sredney Azii v srednie veka. // Journal of Turkic civilization Studies No. 2. (2006) – Bishkek: - C. 79-99.
17. 17. Sh.S. Kamoliddin, Z.A. Ilxamov. Camanidь: iz istorii gosudarstvennosti uzbekistana v IX – X vv. Uchebno-metodicheskoe posobie dlya studentov istoricheskix fakultetov vysshix uchebnyx zavedeniy. – T.: 2018. - 193 s.
18. 18. Shefer Э. Золотые persiki Samarkanda. Kniga o chuzemnykh dikovinkax v imperii Tan. - M.: Nauka. -1981. – 608 s. s il.
19. 19. History of Civilizations of Central Asia. Volume III. The crossroads of civilizations: A.D. 250 to 750. Editor: B.A. Litvinsky, Co-editors: Zhang Guang-da and R.Shabani Samghabadi. UNESCO Publishing. 1996. – 569 p.
20. 20. Jeong Su-il. The Silk Road Encyclopedia. Seoul Selection. 2016. – 1086 p.
21. 21. Jonathan Tao. Heavenly Horses of Bactria: The Creation of the Silk Road. - Emory Journal of Asian Studies. 2019. – R. 3-24.
22. 22. Paul J. Smith. Taxing Heaven's Storehouse: Horses, Bureaucrats, and the Destruction of the Sichuan Tea Industry 1074-1224. - Cambridge: Harvard University Press, 1991. - 489 p.